



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 2

2026

XATOLARNI BARTARAF ETISH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHGA METAKOGNITIV YONDASHUV

Xasanova Ozodaxon Qurvonali qizi
Fargʻona davlat universiteti, (DSc)

Annotatsiya

Mazkur maqolada nemis tilini oʻrganish jarayonida yuzaga keladigan lingvistik xatolarni bartaraf etishda metakognitiv kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda metakognitiv monitoring, tahrirlash, oʻzini baholash, “Selbstkontrollblätter” metodikasi hamda raqamli texnologiyalar asosida ishlash mexanizmlari yoritilgan. Fonetik, fonologik va reproduktiv xatolar bilan ishlashda oʻz-oʻzini nazorat qilish va refleksiya jarayonining ahamiyati asoslab beriladi. Shuningdek, onlayn platformalar va kommunikativ oʻyinlar yordamida xatolarni toʻgʻrilashning didaktik samaradorligi koʻrsatib oʻtiladi.

Kalit soʻzlar: metakognitiv kompetentlik, nemis tili, xatolarni toʻgʻrilash, reproduktiv xatolar, fonetik xatolar, raqamli texnologiyalar, oʻz-oʻzini baholash.

МЕТАКОГНИТИВНЫЙ ПОДХОД К РАЗВИТИЮ КОМПЕТЕНТНОСТИ УСТРАНЕНИЯ ОШИБОК

Хасанова Озодахон Курвонали кизи
Ферганский государственный университет,(DSc)

Аннотация

В статье рассматриваются подходы к развитию метакогнитивной компетентности при коррекции языковых ошибок в процессе изучения немецкого языка. Анализируются методы метакогнитивного мониторинга, редактирования, самооценки, использование «Selbstkontrollblätter», а также применение цифровых технологий. Особое внимание уделяется работе с фонетическими, фонологическими и репродуктивными ошибками через рефлексию и самоконтроль обучающихся. Показана дидактическая эффективность онлайн-платформ, интерактивных заданий и игровых форм обучения.

Ключевые слова: метакогнитивная компетентность, немецкий язык, коррекция ошибок, языковые ошибки, цифровые технологии, самоконтроль, обучение иностранным языкам.

A METACOGNITIVE APPROACH TO DEVELOPING ERROR-CORRECTION COMPETENCE

Xasanova Ozodaxon Qurvonali qizi
Fergana State University, (DSc)

Abstract

This article explores approaches to developing metacognitive competence in correcting linguistic errors in the process of learning German as a foreign language. The study discusses metacognitive monitoring, self-editing, self-assessment, the use of “Selbstkontrollblätter,” and digital technologies as tools for effective error treatment. Particular attention is paid to phonetic, phonological, and reproductive errors through reflection and learner autonomy. The didactic value of online platforms, interactive tasks, and game-based

activities in enhancing motivation and learning outcomes is highlighted.

Keywords: metacognitive competence, German language learning, error correction, linguistic errors, digital tools, self-assessment, foreign language teaching.

Xatolarni tahlil qilish va ularni to'g'rilash mavzusi bo'yicha tadqiqot olib borgan ko'p tadqiqotchilar xatolarni qanday, kim tomonidan, nima uchun, qachon to'g'rilanadi kabi savollarga e'tibor qaratib kelishgan. Biz ularni xatolarni to'g'rilash texnikalari yoki xatolarni bartaraf etish kompetentlini rivojlantirishga metakognitiv yondashuv deyish to'g'ri bo'ladi, degan fikrdamiz. Biz bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining metakognitiv kompetentligini rivojlantirish uchun "Xatolarni to'g'rilash uchun besh qadam" metodik yondashuvini ham taklif qilamiz. Bunda til o'rganuvchi o'zi uchun beshta ustundan tashkil topgan jadval shakllantiradi. Jadval quyidagi ko'rinishda bo'lishi mumkin:

1-jadval

Xato kategoriyasi	Misol (xato bilan)	Qisqacha qoida	To'g'rilangan variant	Transfer-Plan
Masalan: Otning artiklini qo'llashda xatoga yo'l qo'yish	Die Maedchen geht in die Schule.	Barcha -chen qo'shimchasiga tugagan otlar "das" artikli bilan qo'llaniladi	Das Maedchen geht in die Schule.	Barcha -chen qo'shimchasi bilan tugagan otlar ishtirok etgan gaplarda

Reproduktiv xatolarni bartaraf etishda quyidagi metodik yondashuvlardan foydalanish ijobiy samara beradi:

Metakognitiv monitoring. Bu jarayon til o'rganuvchiga o'z nutqi mazmuni va maqsadlariga erishish darajasini mustaqil baholash uchun imkon beradi. Talabada "talaffuz va grammatik jihatdan xatoga yo'l qo'yganim yo'q, lekin aytmoqchi bo'lgan fikrimni yetarlicha ifodalay oldimmi?" degan xulosa paydo bo'ladi. Talabalarga shu tarzda o'zining reproduktiv mahsulotini monitoring qilishni o'rgatib borish natijasida kelgusi pedagogik faoliyatida til o'rganuvchilarining reproduktiv xatolari bilan ham samarali ishlash usullarini singdirib borishga erishiladi.

Keyingi yondashuv metakognitiv tahrirlash hisoblanadi. U orqali til o'rganuvchi o'zi tomonidan aytilgan soddalashtirilgan shakldagi ifodani qayta ko'rib chiqadi va murakkabroq muqobil variantlar bilan almashtirib ko'radi. Bundan tashqari ifodani qo'shimcha so'z va iboralar bilan boyitish ham yaxshi samara beradi. O'zining sodda nutqini mustaqil tarzda qayta tahrirlashga o'rganish esa metakognitiv kompetentlikni rivojlanishiga olib keladi.

Reproduktiv xatolarni, ayniqsa soddalashtirishlarni bartaraf etishda metakognitiv strategiyalardan, masalan, maqsad qo'yish, o'ziga savol berish yoki rejalashtirishdan ham samarali foydalanish mumkin. Bunday strategiyalar o'qituvchi va guruhdoshlar yordamida "to'g'ri", lekin soddalashtirilgan nutqni haqiqiy kommunikativ maqsadga moslashtirishga imkon beradi. Masalan, oldindan maqsad qo'yish strategiyasida til o'rganuvchi tinlagan yoki o'qigan matnim haqida "uchta asosiy fakti yetkazaman", "matnni amaliy misol bilan boyitaman" kabi maqsadlar bilan taqdim etadi va maqsadiga erishgan yoki erishmaganligini tahlil qiladi. Bu strategiyani quyidagi tarzda davom ettirish ham mumkin. Talaba o'z nutqini yozib (audio/video) oladi, keyin nutqini tinglab yoki ko'rib, nimani maqsad qilgani va amalda nimaga erishganini solishtiradi. Bu esa metakognitiv xulosalar ishlab chiqishga xizmat qiladi. Metakognitiv xulosalar ishlab chiqish ko'nikmasiga ega bo'lish esa xatolarni bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Fonetik va fonologik xatolarni bartaraf etishda metakognitiv yondashuvdan foydalanish deganda, talabani o'z talaffuzini qanday eshitishi, o'z xatolarni qanday aniqlay olishi va qaysi usullar yordamida ularni to'g'rilashi tushuniladi. Metakognitiv yondashuvlar yordamida xatoni bartaraf etishda tashqi to'g'rilash, ya'ni xatoni o'qituvchi tomonidan to'g'rilanishidan talabani mustaqil, ichki nazorat va o'z-o'zini to'g'rilashga o'tiladi. Buning natijasida esa talabalarda mustahkam, yoddan chiqmaydigan fonetik/fonologik ko'nikmalar shakllanadi.

Fonetik va fonologik xatolarni bartaraf etishda metakognitiv yondashuvdan foydalanish faqat texnik mashqlardan foydalanishdan ko'ra samaraliroq hisoblanadi. Chunki bu jarayonda talaba xatosini tashqidan ichki nazoratga o'tkazadi. Talaba o'z javoblarini monitoring qilish, baholash va boshqarish bosqichlari maqsadli integratsiyasi qilishi asosida nafaqat tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni, ritmni, intonatsiyani to'g'rilashni, balki o'z nutq jarayonini ongli ravishda anglab, mustaqil tarzda to'g'rilash strategiyalarini shakllantiradilar. O'qituvchi roliga o'zini sinab ko'rish yordamida esa metakognitiv savollarni hamda va konstruktiv fidbekni doimiy ravishda tatbiq etish tavsiya etiladi. Buning natijada esa nemis tilida fonologik aniq va kommunikativ jihatdan samarali bo'lgan nutq yuzaga keladi.

Buni amalga oshirish uchun "Selbstkontrollblätter" metodik yondashuvdan foydalanishni tavsiya qilamiz. Uni dars jarayoniga quyidagicha tatbiq etish mumkin.

Selbstkontrollblätter, ya'ni o'z-o'zini nazorat qilish varaqalari metakognitiv yondashuvning amaliy vositalaridan biri bo'lib, o'rganilayotgan vazifa uchun aniq monitoring, baholash va boshqarish mexanizmini talab qiladi. Uning pedagogik samaradorligi bir necha nazariy tamoyillarga asoslanadi. Xususan, metakognitiv monitoringda talaba o'z talaffuzini telegram yoki shunga o'xshash ilovalardagi ovozli xabar yozish funksiyasidan foydalangan holda yozib oladi va uni qayta maqsadli eshitish asosida xatolari haqida ongli ravishda ma'lumot to'playdi va qanday xatolarga yo'l qo'ygani aniqlab, nazorat varaqasiga qayd etadi. Shundan so'ng o'zini baholash bosqichiga o'tiladi. Bunda talaba xato turi va uning muloqotning tushunarligiga ta'siri natijasini baholaydi. Masalan, muloqot tushunarligiga ta'sir etmagan yoki salbiy ta'sir etgan tarzida. Yo'l qo'yg'an xatolarining muloqot tushunarligiga ta'sirini birdan beshgacha bo'lgan shkalada baholaydi. Bu shkalada bir kuchli salbiy ta'sirni ifodalasa, besh muloqot tushunarligiga ta'sir etmaganligini ifodalashi mumkin. Keyingi bosqich boshqarish/to'g'rilash bosqichi hisoblanadi. Talaba aniqlangan xatolarni to'g'rilashga harakat qiladi va ikkinchi marta o'z nutqini to'g'rilangan holda yozib oladi. Oxirgi bosqichda esa matnni qayta eshitib, baholash shklasida qayd etadi va o'zgarish bor yo'qligi haqida bir yoki ikkita gapdan iborat xulosa yozadi. Shu bilan birga nazorat varaqalarida quyidagi mazmundagi savollar ham aks etishi mumkin?

- Habe ich nach der Übung eine Verbesserung bemerkt/ Mashqdan keyin yaxshilanishni sezdimmi?
- Habe ich die Wörter korrekt gehört/So'zlarni to'g'ri eshittimmi?
- Habe ich die Wörter korrekt ausgesprochen/So'zlarni to'g'ri talaffuz qildimmi?

Ushbu savollarga beriladigan javoblarda ham birdan beshgacha shkaladan foydalanish mumkin.

Xatolarni bartaraf etishda metakognitiv kompetentlikni rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda til o'rganuvchilarning o'tilgan mavzularni qay darajada o'zlashtirganliklarini tekshirish uchun turli ilovalardan foydalanish imkoniyati mavjud. Xususan, Kahoot ilovasi yordamida til o'rganuvchilarning mavzusini qay darajada o'zlashtirganliklarini jonli ravishda tekshirish imkoniyati mavjud. Ushbu ilovadan foydalanish natijasida talabalar o'zlarining javoblari

to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini real vaqt rejimida ko'rib, tahlil qilib borishlari imkoni mavjud. Talabalarning o'z xatolarini bu tarzda kuzatib borishlari, ularni yo'l qo'ygan xatolarini mustaqil tahlil qilishga undaydi.

Yozma ishlardagi orfografik, stilistik xatolarni to'g'rilashda esa bugungi kunda keng qo'llanilayotgan DeepL Write ilovalari, JustDone, Scribbr, Sapling kabi kabi online feedback tizimlaridan ham foydalanish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari nemis tilidagi Schubert online Aufgaben, DW-Deutsch lernen, Goethe-Institut Online-Übungen kabi self-assessment platformalarida ham real vaqt rejimida turli topshiriqlarni bajarish, ularni xato yoki to'g'ri bajarilganligini tekshirish va o'zining o'rganish strategiyalarni muvofiqlashtirib borish mumkin. Messenjer ilovalaridagi ovozi xabar yozish funksiyasidan foydalanib audio matn tayyorlash, ularni maqsadli tinglash va online diagnostika jadvalini to'ldirishga o'rgatish ham ijobiy natija beradi. Audio matnni maqsadli tinglash dastlab talabaning o'zi tomonidan, keyin esa juftlikdagi sherigi tomonidan amalga oshirilishi lozim.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, xatolarni to'g'rilash darsning uzviy qismi bo'lishi lozim, lekin uni til o'rganuvchilarga faqat tanbeh berish uchun yoki darsdagi tartibni saqlab turish uchun o'tkazish kerak emas. Xatolarni to'g'rilash til o'rganuvchilarga motivatsiya berish sifatida qo'llanilishi maqsadga muvofiq. Xatolarni to'g'rilashda turli o'yinlardan foydalanish, bu jarayonni musobaqa tarzida tashkil etish, metakognitiv strategiyalardan foydalanish til o'rganuvchilarning nemis tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirishga yordam boradi. Xatolarni bartaraf etishda metakognitiv kompetentlik bo'lajak nemis tili o'qituvchilari uchun juda ham muhim bo'lib, uni turli o'yinlar, metakognitiv yondashuvlar yordamida rivojlantirishga ahamiyat berish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Aliakbari M., Toni A. On the Effects of Error Correction Strategies on the Grammatical Accuracy of the Iranian English Learners //Journal of Pan-Pacific Association of Applied Linguistics. – 2009. – V. 13. – №. 1. –99-112 p.;
2. Bryant C. et al. Grammatical error correction: A survey of the state of the art // Computational Linguistics. – 2023. V. 49. №. 3. –643-701p.
3. Dahlmeier D., Ng H. T. Better evaluation for grammatical error correction //Proceedings of the 2012 Conference of the North American Chapter of the Association for Computational Linguistics: Human Language Technologies. – 2012. – 568-572 p.
4. DeKeyser R. M. The effect of error correction on L2 grammar knowledge and oral proficiency // The modern language journal. – 1993. V. 77. №. 4. – 501-514 p.
5. Loewen S. Second language learners' beliefs about grammar instruction and error correction //The Modern Language Journal. – 2009. V. 93. №. 1. – 91-104 p.
6. Raabe H. Der Fehler beim Fremdsprachenerwerb und Fremdsprachengebrauch // Fehlerlinguistik. – Max Niemeyer Verlag. – 2010. –S.65.
7. Schoormann M., Schlak T. Hilfreich oder ohne praktischen Nutzen? – Die Forschung zur mündlichen Fehlerkorrektur im Zweit-und Fremdsprachenunterricht // Zeitschrift für Fremdsprachenforschung. – 2011. B. 22. №. 1. – 43-84 S.
8. Schoormann M., Schlak T. Zur Komplexität mündlicher Fehlerkorrekturen // Beiträge zur Fremdsprachenvermittlung. –2011. B. 51. – 77-105 S.
9. Sun S. Written corrective feedback: Effects of focused and unfocused grammar correction on the case acquisition in L2 German: Dissertation zur Erlangung Doktorgrades. – University of Kansas, 2013. – 245 p.
10. Tönshoff W. Mündliche Fehlerkorrektur im Fremdsprachenunterricht // Zeitschrift für Fremdsprachenforschung. – München. – 2005. Band 16. – S 14.